

Geografiya o'qitish metodikasi

5110500 - Geografiya o'qitish metodikasi - umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun geografiya bo'yicha o'qituvchi tayyorlash jarayonida foydalaniladigan fanlar, pedagogik faoliyat vositalari, usullari, metodlari yig'indisidan iborat bo'lgan ta'lim yo'nalishidir.

5110500 – Geografiya o'qitish metodikasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining tavsifi

4.1 Bakalavrning kasbiy faoliyat sohasi

5110500 – Geografiya o'qitish metodikasi – umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun geografiya bo'yicha o'qituvchi tayyorlash jarayonida foydalaniladigan fanlar, pedagogik faoliyat vositalari, usullari, metodlari yig'indisidan iborat bo'lgan ta'lim yo'nalishidir.

4.2 Bakalavrlarning kasbiy faoliyati obyektlari

5110500 – Geografiya o'qitish metodikasi ta'lim yo'nalishibakalavrlarning **kasbiy faoliyati obyektlari** –umumta'lim maktablari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari, o'quvchilar, o'quv-tarbiya jarayoni, o'qitishning pedagogik texnologiyalari va metodlari, kartografik usullar.

4.3 Bakalavrlarning kasbiy faoliyati turlari

5140100 - Geografiya o'qitish metodikasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr o'z psixologik-pedagogik, kasbiy tayyorgarligiga muvofiq quyidagi kasbga oid faoliyat turlari:

- *o'qituvchilik;*
- *tarbiyachilik;*
- *o'quv-metodik;*
- *ilmiy-tadqiqot.*

Bakalavr tayyorlanadigan kasbiy faoliyatning muayyan turlari ta'lim jarayonining manfaatdor ishtirokchilari bilan hamkorlikda oliy ta'lim tizimi tomonidan aniqlanadi.

4.4 Bakalavrlar kasbiy faoliyatining vazifalari

5110500 – Geografiya o'qitish metodikasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr ta'lim dasturini o'zlashtirish natijasida kasbiy tayyorgarlikning asosiy

turlari va maxsus tayyorgarligiga mos quyidagi kasbiy vazifalarni yechishi kerak:

- **o'qituvchilik**: umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarda geografiya o'qituvchisi bo'lib ishlash;

- **tarbiyachilik**: umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlardan tashqari muassasalarda tarbiyachi bo'lib ishlash;

- **o'quv-metodik**: mos ta'lim yo'nalishlar bo'yicha ta'limni amalga oshiruvchi vazirliklar, uning tarmoq boshqarmalari va muassasalarida metodist bo'lib ishlash;

ilmiy-tadqiqot muassasalarida kichik ilmiy xodim bo'lib ishlash va boshqalar.